

**UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDAGI O'QITISH TIZIMI VA
O'QUVCHILAR UCHUN YARATILGAN SHAROITLAR, ULARGA
BERILAYOTGAN IMKONIYATLAR**

*AQXAI Yurisprudensiya 1-bosqich talabasi
G'ulomova Nozima G'ofur qizi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi vaqtida maktablardagi berilayotgan bilim darajasi va undan o'quvchilar qanday foydalanayotgani haqida so'z boradi. Umumiy o'rtta ta'limga muktablari abituriyentning OTMlarga kirishda qanday rol o'ynayotgani haqida ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: ta'limga, abituriyent, universitet, korrupsiya, texnologiya, maktabgacha ta'limga muassasi, horijiy universitetlar.

Kirish. Tobora rivojlanib borayotgan mamlakatlarda xalqaro maydonidagi kurash darajasining ko'rsatkichini asosiy sababini yoshlarga berilayotgan ta'limga darajasi belgilab beradi. Negaki yoshlar mamlakat kelajagi hisoblanadi. Mamlakatning ertangi kunini yoshlar qo'lida ekanligi bu davlat bor e'tiborni yoshlarga qaratishi kerak ekanligini anglatadi. Bejizga O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" kitobida "Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro'e'tibori avvalombor farzandlarimizning unib-o'sib, ulg'ayib, qanday inson bo'lib hayotga kirib borishiga bog'liqdir. Biz bunday o'tkir haqiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak." degan edilar.¹

Umumiy o'rtta ta'limga muktablari o'qitish tizimi va o'quvchilar uchun yaratilgan shart-sharoitlar oldingi yillardan kelib o'zgarib bormoqda. Bu tizim o'quv jarayonini tashkil etish, o'quvchilarni taraqqiyotga yo'naltirish, ularning ma'lumot olish va rivojlantirish, shuningdek ularning ijtimoiy va psixologik rivojlanishiga qaratilgan. Ta'limga tizimidagi o'zgarishlar dunyoda har kuni sodir bo'layotgan jarayonlardan biridir. Bu o'zgarishlar ta'limga rivojlantirish, o'quvchilarni tayyorlash, ularning mahoratlarini oshirish va ularni mustaqil fikr-mulohazalarga ega qilish maqsadida amalga oshiriladi.

Bundan tashqari ta'limga tizimidagi o'zgarishlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham keng yoritib berilgan, unda quyidagicha aytib o'tilgan. 50-moddasiga ko'ra "...davlat bepul umumiy o'rtta ta'limga va boshlang'ich professional ta'limga olishni kafolatlaydi. Ta'limga tashkilotlarida alohida ta'limga ehtiyojlariga ega bo'lgan bololar uchun inkluziv ta'limga va tarbiya ta'minlanadi" deyilgan.² Yana shuni

¹ Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch kitobi

² O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi "o'zbekiston" Toshkent-2023

aytish kerakki, 2023-yil qabul qilingan Konstitusiyada ilk marotaba o'qituvchilar haqida ham berib o'tilgan ya'ni 52-moddasiga ko'ra "...davlat o'qituvchilarning sha'ni va qard-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qiladi" deb e'tirof etilgan. Mamlakatimizda o'qituvchilarning ham o'rni tobora oshayotgani bu taraqqiyot natijasidir.

Ta'lim tizimida o'zgarishlar haqida bir nechta misollar keltirish mumkin. Ta'lim tizimidagi o'zgarishlar odatda yangi texnologiyalar, metodlar va talablar bilan bog'liq bo'ladi. Quyidagi muhim o'zgarishlar ta'lim tizimida keng qo'llaniladi. Bulardan birinchisi texnologiyalardir, ya'ni texnologiyalar o'zgarib borayotganligi uchun ta'lim tizimlari ham o'zgarib boradi. Masofaviy talim, onlayn ta'lim platformalari, interaktiv darsliklar, Al va VR dasturlar ta'lim tizimlarini o'zgartirishda muhim rol o'yndaydi. Ikkinchisi, "Amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim" "ya'ni nazariyadan ko'ra amaliyotga yo'naltirilgan ta'limning o'zgarishlari muhimdir. O'quvchilar nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash va muammolarni o'zlashtirish imkoniyatini berish ta'lim sifatini oshiradi. Uchinchisi esa "Individual yakuniylik" bu har bir o'quvchi o'zining individual xususiyatlari va talablari bo'yicha masofaviy ta'limni amalgaga oshirish uchun shaxsiy yakuniyatlar va dastlabki testlar yordamida berilgan ta'limni o'zlashtirish imkonini beradi." To'rtinchidan, "Hamkorlik va jamoa ishlari" bu Ta'lim tizimlari o'quvchilar qo'llab-quvvatlash uchun o'qituvchilar, o'quv yordamchilari otanonalar va jamoa a'zolari bilan qo'llab-quvvatlash uchun yangi usullarni qo'llaydi. Beshinchidan, ta'limda "Oquvchilarning motivatsiyasini oshirish" bo'lib o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish uchun o'zgarishlar yaratiladi, masalan, qiziqishlarini jalb qilish uchun innovatsion dasturlar, tanqidiy fikrlar va ijodiy mashg'ulotlar qo'llanilishi muhimdir. Bu o'zgarishlar ta'lim tizimini o'quvchilarning qabul qilishi va o'zlashtirishini ta'minlash, ularning motivatsiyasini oshirish va ularni yangi texnologiyalar, metodlarga qiziqishini oshirish maqsadida amalgaga oshiriladi.

Jamiyatimizda shunday naql bor, tarbiya oiladan boshlanadi deyilgan. Oila muqaddas dargoh, biz ana shu oilada kamol topamiz, ulg'ayamiz va mustaqil hayotga qadam qo'yamiz. Har bir mamlakat ertangi kunini uning yoshlarida ko'radi. Shunday ekan oila jamiyatning asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Buyuk bobokalonimiz Abdulla Avloniy aytganidek, "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir". Bu esa yoshlarimizning oiladan tashqarida ko'rsatadigan tarbiyasi haqida aytilgan.

³Birinchi prezidentimiz Islom Karimov aytganlaridek "...har bir alohida odamga hurmatsizlik, uni mensimaslik, ungaadolatsizlik qilish o'sha odam mansub bo'lgan xalqqa yetkaziladigan katta zarar deb bilaman." deb o'zlarining O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida nomli kitoblarida berib o'tganlar. Bunda

³ Islom Karimov O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida kitobi

prezidentimizning xalqi oldidagi vazifasi, qat'iyatligi va ma'suliyati aniq ravshan yoritib berilgan.Biz yoshlardan ham aynan shuni talab qiladilar.Shuning uchun ham barcha islohotlarida yoshlardan gapirib ularga imkoniyatlar yaratib bergenlar.

Ta'lim tizimlarida korrupsiyaga qarshi kurash uchun bir qancha usullar va amallar muhim hisoblanadi.Hozirda ta'limda korruption holatlar ko'payib ketgan .Barcha yo'naliishlarda pora berish va olish holatlarini kuzatish mumkin.Respublikamizda korrupsiyaga qarshi kurash borasida qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasida Iqtisodiy jinoyatchilikka va korrupsiyaga qarshi kurash boshqarmasi faoliyat yuritayapti.2001-yil Bosh prokuratura huzurida soliqqa oid jinoyatlarga qarshi kurash Departamenti tashkil etilgan ,2002-yil Departament Soliq va valyutaga oid jinoyatlarga qarshi kurash Departamenti deb qayta tashkil etildi. Ta'lim tizimlarida shaffoflik va oshkoraliq muhim tamoyil hisoblanadi.Har qanday korrupsiya holatlarini aniqlab,ularni tushunish va ularni oldini olish uchun o'quvchilarni, o'qituvchilarni va boshqalar bilan shaffoflikda ishslash zarur.Korrupsiyaga qarshi kurashda huquqiy tartib va qonunlarga muhim ahamiyatga berish lozim.Ta'lim tizimlarida korrupsiya bilan kurashishda qonunlar va huquqiy tartibga amal qilish, shu jumladan , korrupsiya bilan bog'liq ma'lumotlarni xavfsiz saqlash va ularni to'g'ri ko'rsatish muhimdir.Ta'lim tizimida tranparensiya va ochiqlikni ta'minlash korrupsiyaga qarshi kurashda muhim rol o'ynaydi.Barcha moliyaviy amallar o'tgan ishlar va qarorlar ochiq bo'lishi va o'quvchilar , o'qituvchilar va boshqalar uchun foydalanuvchilarga oson yetkazib berilishi zarur.

O'qituvchilar , ma'muriy xodimlar va boshqalar ta'lim tizimlarida professionalizm va etik davrni saqlash , harakat qilish va o'rganuvchilarga misol bo'lishi korrupsiyaga qarshi kurashda muhimdir. O'quvchilar va ota-onalar uchun ombudsman yoki shikoyatlar ombori tashkil etish ta'lim tizimlarida korrupsiyaga qarshi kurashda yordam berishi mukin.Korrupsiyaga qarshi kurash ta'lim tizimlarida o'quvchilarning o'zlarini himoya qilish , huquqlarini himoya qilish va adolatni ta'minlash uchun juda muhimdir.Bu muhim muddatda , shaffoflik,qonun va huquqiy tartibga rioya qilish ,transparensiya, professionalizm va etik davr, ombudsman yoki shikoyatlar ombori tashkil etish korrupsiyaga qarshi kurashda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Bolalarning maktabdagagi olayotgan bilimlari o'qishga kirishdagi ahamiyati juda yuqori.Abituriyentlar Oliy ta'lim muassasiga kirishda juda ko'p tayyorgarlik ko'rishadi.Ular turli o'quv kurslariga borib o'z bilimlarini oshiradilar.Maktabdagagi bilimlарини qayta takrorlab OTMlarga kirishga tayyorgarlik ko'rishadi. Maktabda o'qish o'quvchilarga o'z-o'zini ifodalash, fikrlarini bayon qilish va savollarini yechish imkoniyatini beradi.Bu ularning o'zlarini rivojlantirish va o'zlashtirishiga yordam beradi. Maktabdagagi o'quvchilar o'qish orqali olayotgan bilimlari maktab vaqtlarida

aniq maqsadlar va niyatlar qilishadi. Bolalarning maktabdagi olayotgan bilimlari o'qishga kirishdagi ahamiyati ularni o'zlarini rivojlantirish, kasbiy rivojlanish, jamiyatda muvaffaqiyatga erishish va aniq maqsadlar belgilashda yordam beradi.

Yoshlarning chet el universitetlarida o'qish o'ziga xos afzalliklarga ega bo'lishi mumkin. Chet el universitetlarida o'qish yoshlarga xalqaro tajribani olish imkoniyatini beradi. Bu ularning madaniyati, xalqaro tajriba olishi, tili, va dunyoqarashlarini kengaytirishiga yordam beradi. Bundan tashqari chet elda o'qish o'quvchilarga yengil o'qish imkoniyatini taqdim etadi. Ya'ni bu zamonaviy texnologiyalar va innovatsion usullar o'quv jarayonini yaratadi. Yana shuni aytish kerakki, o'quvchilarga ko'p tilli muhitda o'qish imkoniyatini beradi. Bu ularning til bilimlarini oshirish va ko'p tilli kommunikatsiya qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Chet el universitetlarida o'qish o'quvchilarni kasbiy rivojlanish yo'llini ochadi. Chet el universitetlarida o'qish orqali o'quvchilar xalqaro miqyosida kasbiy rivojlanish va keng ko'lamli kasb bilan tanishishlari mumkin. Bu imkoniyat talabalar uchun ko'p madaniyatli tarix va san'atga ega bo'lishni taqdim etadi. Bu ularning dunyoqarashlarini kengaytirish va ko'p toifali odamlar bilan tanishish, ular bilan bog'lanishlarini ta'minlaydi. Umumlashtirib aytadigan bo'lsak chet el universitetlarida tehsil olish talabalar uchun xalqaro tajribani olish, oson o'qish, ko'p tilli muhit, kasbiy rivojlanish va ko'p madaniyatli tarixga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Bu yoshlar uchun eng yangi va keng ko'lamli kasblarni o'rganish, egallah, va dunyoqarashlarini kengaytirish imkoniyatini taqdim etadi.

Xulosa sifatida shuni aytish kerakki, yoshlar maktab tizimi orqali oliy ta'lim muassasalariga kirishlari amrimahol. Negeki, hozirgi vaqtida Oliy ta'limga kirish oson bo'lmay qoldi. Ta'lim tizimi kuchaytirilganligi sababli, hozir faqat o'qishga e'tibor qaratilgan. O'zbekistonda hozirgi vaqtida yoshlarni ta'limga e'tiborini qaratish lozim. Buning uchun ota-onalar bolalarining bilim olishi uchun yetarlicha sharoitlar yaratib berishlari lozim. Prezidentimiz bejizga 2024-yilni ‘Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili’ deb nomlamaganlar. Bu degani biz yoshlarga qaratilayotgan e'tibor yildan-yilga kuchayib bormoqda. Abituriyentlar uchun ko'plab o'quv kurslarini tashkillashtirish kerak. Shunda yoshlar o'rtasida raqobat kuchayadi va rivojlanish bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi –Toshkent -2023
- 2.O'zbekiston Mustaqillikka erishish ostonasida /I.A.Karimov - T .: “Ozbekiston” 2012-yil
- 3.Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch.I.Karimov –T.: “Ma'naviyat”,2016